

JISMONIY SHASXLARNI KOMPLEKS SUG'URTA QILISH MUHIM SHARTLARI

I. SUG'URTA HODISASI

1.1. Uy-joyga zarar yetishi:

1.1.1. Mazkur Qoidalariga asosan Sug'urta qildiruvchiga tegishli bo'lgan uy-joylarining - yong'in, portlash, tezligi 20 m/s dan yuqori bo'lgan kuchli shamol, juda kuchli shamol (dovul), juda kuchli jala, ko'chki, tuproqning ko'chishi, toshqin, sel va sel oqimi, yashin urishi, zilzila, do'l, juda kuchli qor yog'ishi, buzib kirib o'g'irlik qilish natijasida yo'qotilishi yoki shikastlanishi Sug'urta hodisasi deb hisoblanadi.

1.2. Baxtsiz hodisalardan oilaviy sug'urta qilish:

-Sug'urtalangan shaxsning baxtsiz hodisa tufayli shikastlanishi (mayiblanishi);

-Sug'urtalangan shaxsning baxtsiz hodisa tufayli o'limi.

1.2.1. Sug'urtalangan shaxs vafot etganda Manfaatdor shaxsga yoki Sug'urtalangan shaxsning vorislariga Sug'urta puli to'liq to'lanadi. Sug'urtalangan shaxs o'limi tufayli to'lanadigan sug'urta pulidan baxtsiz hodisa tufayli shikastlanishi (mayib bo'lishi)ga ilgari to'langan to'lov chegirib qolinadi.

1.2.2 Baxtsiz hodisaga - Sug'urtalangan shaxsning hohish irodasiga bog'liq bo'lmagan holda kutilmagan hodisalar natijasida tananing jarohatlanishi, jarohatlanish natijasida tana a'zolarini ishlash funksiyasini o'zgarishi yoki o'limga olib keluvchi tabiatda bo'ladigan hodisalar: kuyish, muzlab qolish, cho'kish, (shamollash va kasallik tufayli vafot etishdan tashqari), elektr toki va yashin urishi, tabiat hodisalari (tezligi 20 m/s dan yuqori bo'lgan kuchli shamol, juda kuchli shamol (dovul), juda kuchli jala, sel va sel oqimi, yashin urishi, zilzila, toshqin, ko'chki, do'l, juda kuchli qor yog'ishi), portlash hamda hayvonlar tajovuzi, tishlashi, chaqishi natijasida shikastlanishlar, g'araz niyatli shaxsni hujumi, Sug'urtalangan shaxsning yiqilishi yoki ustiga biror bir jismni tushib ketishi, jismning urilishi, transport vositalarining (avtomobil, poyezd, tramvay va boshqalarni) ag'darilishi yoki ularning harakati vaqtida yo'l transport hodisalarida, mashina, mexanizmlardan va boshqa turdagi asboblardan foydalanayotganda olingan jarohatlar, tasodifan nafas olish yo'lga biror narsa tiqilib qolishi, zaharli o'simliklar, kimyoviy moddalar ta'sirida kuchli zaharlanish, tasodifan suyak sinishi, chiqishi, bo'g'im va to'qimalarning uzilishi, tana a'zolarining to'liq yoki qisman yo'qotilishi kiradi.

1.2.3. Sug'urtalangan shaxsga baxtsiz hodisa tufayli shikastlanishi (mayib bo'lishi)ga to'lanadigan Sug'urta puli miqdori Jamiyat Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan "Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilishning barcha turlaridan sug'urta hodisasi natijasida tan jarohati olishi bo'yicha sug'urta puli miqdorini aniqlash jadvali"ga binoan davolash muassasasining hujjatlari asosida, shikastlanishni turiga qarab, Sug'urta pulidan shikastlanish darajasi foizi hisobida aniqlanadi.

1.2.4. Sug'urtalangan shaxs vafot etganda Manfaatdor shaxsga yoki Sug'urtalangan shaxsning vorislariga Sug'urta puli to'liq to'lanadi. Sug'urtalangan shaxs o'limi tufayli to'lanadigan sug'urta pulidan baxtsiz hodisa tufayli shikastlanishi (mayib bo'lishi)ga ilgari to'langan to'lov chegirib qolinadi.

II. SUG'URTA HODISASI HISOBLANMAYDI

1.1.2. Uy-joy bo'yicha quyidagilar Sug'urta hodisasi hisoblanmaydi:

-Sug'urta qildiruvchining qo'pol ehtiyotsizligi, bilib turib (qasddan) amalga oshirgan hatti-harakati yoki harakatsizligi natijasida uy-joyiga zarar yetkazilsa, (Sug'urta qildiruvchining uchinchi shaxslar hayoti, salomatligi, qadr qimmatini, or-nomusini himoya qilish yoki fuqarolik burchini bajarish bilan bog'liq bo'lgan hollar bundan mustasno);

-Sug'urtalovchiga sug'urta shartnomasi tuzish vaqtida uy-joyi haqida yolg'on ma'lumotlar berilsa.

Mazkur Qoidaga asosan quyidagi siyosiy tavsifga ega bo'lgan hodisalar tufayli, uy-joyga yetkazilgan zarar qisman yoki to'liq qoplanmaydi:

-urush va harbiy harakatlar (urush e'lon qilinganligi yoki qilinmaganligidan qat'iy nazar), g'alayon, inqilob, qo'zg'olon, isyon, fitna, ish tashlash, lokaut, hukumatni noqonuniy ravishda egallab olish, terrorchilik harakatlari, musodara qilish, rekvizitsiya, hukumat yoki uning tarkibiy qismi topshirig'iga asosan buzib tashlanishi yoki unga zarar yetishi harakatlari, yadro reaksiyasi, yadro nurlanish yoki radioaktiv zararlanishi yoki nobud bo'lishi holatlarida.

1.2.2. **Baxtsiz hodisa bo'yicha** quyidagilar Sug'urta hodisasi hisoblanmaydi:

- a) Baxtsiz hodisa tufayli Sug'urtalangan shaxsning shikastlanishi (mayib bo'lishi) yoki o'limi O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida ro'y berganda;
- b) Barcha hildagi o'tkir surunkali va nasliy kasalliklar (shu jumladan infarkt, insult va to'satdan a'zolari kasallanishi, kasallikni nasldan naslga o'tish natijasida uni rivojlanishi), anafilaktik shok va oziq - ovqat toksikoinfeksiyasi (salmonellez, ichburug' va boshqalar);
- d) Sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan paytda yuz bergan Sug'urta hodisasi tufayli olib borilgan davolash bilan bog'liq bo'lmagan kasallikni davolash (tashxis qo'yish) va oldini olish tadbirlari (dori yuborish);
- e) Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan)ning qasddan o'z hatti-harakatlari natijasida olgan jarohati yoki o'limi tergov yoki sud tashkilotlari tomonidan qasddan sodir etilgan deb topilsa;
- f) Sug'urtalangan shaxs alkogolli ichimlik, giyohvand yoki zaharli moddalar ta'sirida mast holatda ichki yonuv dvigatelli yoki elektr dvigateliga ega bo'lgan har qanday o'zi yurar vositalar (avtomashina, mototsikl, motoroller, moped, motorli velosiped, kater yoki motorli qayiq, traktor, kombayn, trolleybus, tramvay va hakazolar)ni boshqarishi, shuningdek ana shu vositalarni boshqarishni spirtli ichimlik, giyohvand va zaharli moddalar ta'sirida mast holatda bo'lgan shaxsga berishi oqibatida yuzaga kelgan jarohat yoki o'lim;
- g) Sug'urtalangan shaxsning o'ziga qasddan yetkazgan tan jarohati;
- h) Yadro portlashi, radiatsiya va radiaktiv nurlanish, zaharlanish ta'sirida, harbiy harakatlar, harbiy mashqlar, fuqarolar urushi, ish tashlash, halq ko'tarilishini har hil turlari oqibatida olingan tan jarohatlari yoki o'lim;
- i) Mehnatni himoya qilish qoidalari va sanoat sanitariyasi me'yorlarini, texnika xavfsizligini qo'pol ravishda buzish, Sug'urta qildiruvchi tomonidan xavfsizlik shartlarini va Sug'urtalanganlarning mehnatini muhofaza qilish yuzasidan nazorat o'rnatilmaganligi natijasida olingan jarohat yoki o'lim;
- j) Qarilik tufayli vafot etish sug'urta hodisasi hisoblanmaydi.

III. SUG'URTA TOVONI MIQDORINI ANIQLASH VA TO'LASH TARTIBI

3.1. Uy-joy bo'yicha:

3.1.1. Sug'urta hodisasi ro'y berganda Sug'urta qildiruvchi Sug'urta hodisasi va zararlangan yoki nobud bo'lgan uy-joy haqida Sug'urtalovchiga 3 (uch) kun ichida yozma ravishda xabarnoma beradi.

3.1.2. Sug'urtalangan uy-joy shikastlanishini keltirib chiqaruvchi Sug'urta hodisasi ro'y berganda, hodisa tafsilotlari va sababini aniqlash uchun Sug'urtalovchi, Sug'urta qildiruvchi va xolis guvohlar ishtiroqida dastlabki ma'lumotnoma tuziladi.

3.1.3. Sug'urta qildiruvchi, Sug'urta hodisasi yuz berganda Sug'urtalovchiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- Sug'urta hodisasi to'g'risida ariza;
- Sug'urta polisi;
- Sug'urta hodisasini tasdiqlovchi mutasaddi tashkilotlarning hujjatlari;
- Sug'urta hodisasi natijasida zararlangan uy-joyning fotosuratlari;
- Sug'urta qildiruvchi o'ziga ma'lum bo'lgan Sug'urta hodisasi o'ldirishga oid boshqa ma'lumotlar.

3.1.4. Sug'urtalovchi taqdim qilingan hujjatlar asosida uy-joyga yetkazilgan zarar miqdori aniqlaydi va sug'urta hodisasini tasdiqlovchi dalolatnoma tuzadi.

3.1.5. Barcha tomonlar dalolatnomaga imzo qo'yadilar va imzo qo'yish jarayonida o'z e'tirozlarini dalolatnomada aks ettishi mumkin.

3.1.6. Sug'urtalovchi taqdim etilgan hujjatlarning to'g'riligini tekshirishi va zarur holatlarda, boshqa sug'urta xodisasi aloqador kerakli hujjatlarni talab qilishi mumkin.

3.1.7. Sug'urta qildiruvchi Sug'urta hodisasi bilan bog'liq bo'lgan barcha hujjatlarni (Sug'urta hodisasini tasdiqlovchi hujjatlar nusxasi va hodisa tafsilotlari haqida ma'lumotnoma) Sug'urtalovchiga taqdim etishi shart.

3.1.8. Sug'urta qildiruvchi Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda zararlangan uy-joyni ta'mirlash, sotish, yoqib yuborish, yo'q qilish va boshqa ishlarni Sug'urtalovchi bilan kelishgan holda (yozma ravishda) amalga oshiradi.

3.1.9. Sug'urta puli Sug'urta qiymatidan kam qilib belgilangan bo'lsa, Sug'urtalovchi Sug'urta hodisasi yuz berganda Sug'urta qildiruvchiga u ko'rgan zararni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik

Kodeksining 936-moddasiga asosan Sug'urta pulining Sug'urta qiymatiga bo'lgan nisbatiga mutanosib ravishda qoplaydi.

3.1.10. Sug'urta to'voni litsenziyaga ega bo'lgan baholovchi tashkilot hisoboti asosida belgilanadi.

3.1.11. Sug'urta puli Sug'urta qiymatidan kam qilib belgilangan bo'lsa, Sug'urtalovchi Sug'urta hodisasi yuz berganda Sug'urta qildiruvchiga u ko'rgan zararni Sug'urta pulining Sug'urta qiymatiga bo'lgan nisbatiga mutanosib ravishda qoplaydi.

Sug'urta puli Sug'urta qiymatidan ortiq bo'lsa, shartnoma Sug'urta pulining Sug'urta qiymatidan ortiq bo'lgan qismida o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmaydi.

3.1.12. Sug'urtalovchi taqdim etilgan hujjatlarni o'rganib chiqib, Sug'urta hodisasi ro'y berganligi yoki Sug'urta hodisasi ro'y bermaganligi haqida qaror qabul qiladi.

3.1.13. Sug'urta hodisasi ro'y berganda, Sug'urtalangan uy-joyga tegishli boshqa yana amal qilinayotgan Sug'urta shartnomasi mavjud bo'lsa yoki zarar yetkazgan shaxsdan Sug'urta qildiruvchi foydasiga moddiy zarar undirilgan bo'lsa, to'langan yoki qoplangan zararni chegirib tashlagan holda Sug'urta to'voni to'lab beriladi. Yetkazilgan zarar aybdor shaxs tomonidan qoplangan qismiga sug'urta to'voni to'lab berilmaydi.

3.2. Baxtsiz hodisa bo'yicha:

3.2.1. Sug'urta qildiruvchi/Sug'urtalangan shaxsning Sug'urta shartnomasida ko'zda tutilgan baxtsiz hodisalar natijasida sog'lig'iga zarar yetkazilganligi to'g'risida Sug'urtalovchiga 30 (o'ttiz) kun ichida xabar qilishi lozim.

3.2.2. Sug'urta qildiruvchi/Sug'urtalangan shaxs Sug'urtalovchiga murojaatida quyidagi ma'lumotlarni ko'rsatishi shart:

-Sug'urta hodisasi bo'yicha Sug'urta puli/ta'minotini olish uchun ariza;

-Sug'urta polisi;

-Shaxsni tasdiqlovchi xujjat;

-Sug'urta hodisasi yuz berganligini tasdiqlovchi davolash muassasasining ma'lumotnomasi.

3.2.3. Sug'urta shartnomasi (Sug'urta polisi)da ko'rsatilgan baxtsiz hodisalar natijasida vafot etganda:

-Manfaatdor shaxs (voris)ning arizasi;

-Sug'urta polisi;

-FXDYO bo'limidan O'lim to'g'risidagi guvohnoma yoki uning notarial idora tomonidan tasdiqlangan nusxasi;

-Vorislik huquqi to'g'risida notarial idora tomonidan tasdiqlangan guvohnoma nusxasi;

-Sug'urta qildiruvchining/vorisning shaxsini tasdiqlovchi hujjat.

3.2.4. Sug'urtalangan shaxsning yumshoq to'qimalari, qulog'i, ko'zi, siydik yo'li, jinsiy a'zolari shikastlanganda Sug'urtalovchi shikastlanish oqibatlarini aniqlash maqsadida uni tibbiy ko'rikdan o'tkazish uchun mutaxassis shifokor huzuriga yuborishi mumkin.

3.2.5. Zarur hollarda rentgen surati, tergov tashkilotlarining hujjatlari va boshqalar ilova qilinadi. Rentgen suratida Sug'urtalangan shaxsning familiyasi, ismi, sharifi, yoshi, tekshirilgan sana va raqami ko'rsatilgan yozuv bo'lishi shart.

3.2.6. Sug'urtalangan shaxsga baxtsiz hodisa tufayli to'lanadigan Sug'urta puli Jamiyat Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan "Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilishning barcha turlaridan sug'urta hodisasi natijasida tan jarohati olishi bo'yicha sug'urta puli miqdorini aniqlash jadvali"ga asosan aniqlanadi.

3.2.7. Sug'urtalangan shaxs vafot etganda, Sug'urta hodisasi tufayli aniqlangan Sug'urta puli Sug'urta qildiruvchiga yoki vorislariga to'liq to'lanadi.

3.2.8. Sug'urtalangan shaxsning o'limi tufayli to'lanadigan sug'urta puli miqdori Sug'urta polisida belgilangan Sug'urta puli darajasida belgilanadi. Bunda Sug'urtalangan shaxsning sug'urta polisi amalda bo'lgan davridagi olgan oldingi jarohatlari uchun to'langan sug'urta puli miqdori chegirib qolinadi. Sug'urta hodisasi bo'yicha umumiy to'langan pul mablag'lari Sug'urta pulidan oshmasligi kerak.

IV. TO'LOV MUDDATI

4.1. Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta hodisasi bilan bog'liq bo'lgan barcha ma'lumotlar va hujjatlarni to'liq taqdim qilingandan keyin, Komissiya tomonidan hujjatlar o'rganib chiqiladi va 15 kun

ichida sug'urta hodisasi yuz berganligi yoki yo'qligi to'g'risida dalolatnomani tuziladi. Sug'urta hodisasi yuz berganligi aniq bo'lsa, komissiya sug'urta qoplamasi (tovoni/puli) miqdorini aniqlaydi hamda hodisa tan olinganligi haqida tuzilgan dalolatnomada aks ettiradi.

4.2. Sug'urta tovonni dalolatnoma imzolangan kundan boshlab 5 bank kuni ichida Sug'urtalangan qildiruvchi (Manfaatdor shaxs)ning bankdagi omonat daftarchasiga, so'mlik plastik kartochka hisob raqamiga uning yozma arizasiga binoan pul o'tkazish yo'li bilan to'lanadi.

4.3. Sug'urta qildiruvchining shartnomani (polisni) bekor qilish bo'yicha yozma murojaatiga ko'ra, Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchiga shartnomaning o'tmagan muddatiga mutanosib ravishda sug'urta mukofotlari qaytarib beriladi. Bunda Sug'urtalovchining sug'urta ishini yuritish bilan bog'liq bo'lgan sug'urta mukofotining 25 foizi miqdoridagi xarajatlari qaytariladigan sug'urta mukofotidan chegirilib qolinadi.

V. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Sug'urtalovchining uy-joy bo'yicha huquqlari:

-sug'urtalangan uy-joy holatini, saqlanish sharoitini Sug'urta shartnomasi tuzishda va amal qilish davrida hamda Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda tekshirish monitoringini utkazish;

-Sug'urta qildiruvchi Sug'urta shartnomasini shartlarini bajarmaganda, Sug'urta shartnomasini bekor qilish;

-sug'urtalangan uy-joyning shikastlanishiga aybdor shaxslar aniqlangan hollarda to'langan Sug'urta tovonini ulardan undirib olish haqida da'vo qilish;

-Sug'urta tovonni miqdorini aniqlash uchun Sug'urta qildiruvchidan mutasaddi tashkilotlarning ma'lumotnomalarini, ekspertlar xulosalarini taqdim etishni talab qilish;

-Sug'urta qildiruvchining taqdim etgan hujjatlarini to'g'riligini tekshirish va zarur holatlarda boshqa kerakli hujjatlarni talab qilish;

-Sug'urta qildiruvchi oldidagi Sug'urta tovonini to'lash bo'yicha majburiyatlari to'liq bajarilganida, Sug'urta shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish.

-Sug'urta hodisasi haqida shartnomada belgilangan muddatda xabar berilmasa va natijada ko'rilgan zarar miqdorini aniqlash imkoni bo'lmaganda javobgarlik olib bormaslik huquqlariga ega.

4.2. Sug'urtalovchining baxtsiz hodisa bo'yicha huquqlari:

a) Sug'urta shartnomasi tuzilgandan so'ng Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchiga bila turib (sog'liq va Sug'urta xavfiga oid) yolg'on ma'lumotlar berganligi aniqlansa, shartnomani haqiqiy emas deb topish to'g'risida da'vo qo'zg'atish;

b) Sug'urta shartnomasini tuzishda va sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan davrda Sug'urta qildiruvchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni xaqqoniyligini tekshirish;

d) Sug'urtalangan shaxs xayoti va salomatligiga zarar yetkazilganligi to'g'risida xabardor bo'lganida Sug'urtalangan shaxs bo'yicha tibbiy ma'lumotlarni olish uchun mutasaddi tashkilotlarga so'rovnoma yo'llash;

e) Sug'urtalovchi o'ziga qarashli shifokor-ekspertni jarohat olgan Sug'urtalangan shaxsning sog'lig'ini holati va kasallik tarixini o'rganish uchun yuborish;

f) Sug'urta hodisasi yuzaga kelishida aybdor shaxslarga nisbatan to'langan sug'urta pulini miqdorida pul mablag'larini undirish uchun sudda da'vo qo'zg'atish;

g) Tegishli tashkilotlardan sug'urta hodisasi o'g'oid to'liq ma'lumotlarni va sug'urta hodisasini tasdiqlovchi hujjatlarni olinguniga qadar Sug'urta tovonni yoki sug'urta puli to'lashni kechiktirib turish. Bunda Sug'urta qildiruvchiga Sug'urta tovonni yoki sug'urta puli to'lashni kechiktirib turilganligi sabablarini ko'rsatgan holda yozma xabar yuborishi lozim.

4.3. Sug'urtalovchining uy-joy bo'yicha majburiyatlari:

-Sug'urtalangan uy-joyning Sug'urta hodisasi to'g'risida xabarnoma olgach, uy-joyga yetkazilgan zararni aniqlash va tegishli tashkilotlar vakili ishtirokida ma'lumotnoma tuzish;

-Sug'urta hodisasi natijasida sug'urtalangan uy-joyga yetkazilgan zarar bo'yicha Sug'urta tovonni miqdorini hisoblab chiqish va dalolatnoma asosida belgilangan muddatda to'lash.

4.4. Sug'urtalovchining baxtsiz hodisa bo'yicha majburiyatlari:

a) ro'y bergan voqea sug'urta hodisasi deb tan olinganda sug'urta shartnomasida belgilangan muddatda va tartibda (kerakli hujjatlarni rasmiylashtirgandan so'ng) sug'urta tovonni yoki sug'urta pulini to'lab berish;

b) Sugʻurta tovonni yoki sugʻurta puli toʻlashni rad etish toʻgʻrisidagi qaror qabul qilingan hollarda bu haqda Sugʻurta qildiruviga (naf oluvchiga) ular sugʻurta tovonini yoki sugʻurta pulini toʻlashni soʻrab murojaat etganlaridan keyin oʻn besh kundan kechiktirmay asoslantirilgan dalil-isbotlarini oʻz ichiga olgan rad etish sabablarini yozma ravishda xabardor qilish;

d) Sugʻurtalangan shaxslar sogʻligi holati yuzasidan maxfiylikni taʼminlash;

4.5. Sugʻurta qildiruvchining uy-joy boʻyicha huquqi:

a) Sugʻurta shartnomasi amal qilish davrida Sugʻurta shartnomasiga doir savollarga Sugʻurtalovchidan toʻliq javoblar olish, Qoida shartlari bilan tanishish;

b) Sugʻurta hodisasi sodir boʻlganda ushbu Qoidada koʻrsatilgan tartibda Sugʻurta tovonini olish.

d) Sugʻurtalovchi Sugʻurta tovonni yoki Sugʻurta pulini toʻlashni rad etganda unga nisbatan sudda daʼvo qoʻzgʻatish yoʻli bilan eʼtiroz bildirish.

4.6. Sugʻurta qildiruvchining baxtsiz hodisa boʻyicha huquqi:

a) Sugʻurta qildiruvchi Sugʻurtalovchidan Sugʻurta shartnomasi amal qilish davrida sugʻurtaga doir maslahatlar olish;

b) Sugʻurta hodisasi roʻy berganda uning foydasiga tuzilgan Sugʻurta shartnomasi boʻyicha Sugʻurtalovchi olgan javobgarlikni olib borishni talab qilish.

d) Sugʻurtalovchi Sugʻurta tovonni yoki Sugʻurta pulini toʻlashni rad etganda unga nisbatan sudda daʼvo qoʻzgʻatish yoʻli bilan eʼtiroz bildirish.

4.7. Sugʻurta qildiruvchining uy-joy boʻyicha majburiyatlari:

a) sugʻurtalangan uy-joy shikastlanishi oldini olish uchun barcha choralarni koʻrish;

b) Sugʻurta shartnomasidagi shartlarni belgilangan muddatlarda bajarish, ularni buzmaslik uchun barcha choralarni koʻrish;

d) Sugʻurta hodisasi sodir boʻlganda Sugʻurtalovchiga belgilangan muddatda yozma ravishda xabarnoma berish va Sugʻurta tovonini aniqlash uchun zarur boʻlgan barcha hujjatlarni taqdim qilish;

e) Sugʻurta hodisasi roʻy berganda zarar miqdorini aniqlash uchun zarur boʻlgan fotosurat yoki videotasmalar bilan Sugʻurtalovchini taʼminlash;

f) Sugʻurta hodisasi sodir boʻlganda uy-joyini taʼmirlash va boshqa ishlarini Sugʻurtalovchi bilan kelishilgan holda amalga oshirish.

4.8. Sugʻurta qildiruvchining baxtsiz hodisa boʻyicha majburiyatlari:

a) Sugʻurta shartnomasi boʻyicha Sugʻurta hodisasi yuz berganda, Sugʻurta hodisasi sodir boʻlgan vaqtdan 30 (oʻttiz) bank kunidan kechikmay Sugʻurtalovchini yozma ravishda xabardor qilishi;

b) oʻz imkoniyati darajasida Sugʻurta hodisasi roʻy berishini oldini olish choralarni koʻrish;

d) sugʻurta hodisasi roʻy berganda Sugʻurtalovchiga zarur boʻlgan hujjatlarni taqdim etish;